ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 20.12.2025 · Принята: 08.03.2026 · Опубликована: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/g56qwf80

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

O‘zbek maqom san’ati taraqqiyoti yo‘lida Farg‘ona-Toshkent maqomlarining ahamiyati

(The Significance of the Fergana–Tashkent Maqoms in the Development of Uzbek Maqom Art)

Azizjon Zokirov

The Department of Music Theory and History,
Botir Zokirov National Institute of Pop Art
under the State Conservatory of Uzbekistan,
100027, Botir Zokirov Street, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: uzbekmaqomi@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston hududida shakllangan maqom san’atining tarixiy-tadrijiy taraqqiyot bosqichlari hamda uning hududiy ijro an’analari kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. O‘zbek mumtoz musiqa merosining shakllanishi, uning og‘zaki an’ana negizida rivojlanishi hamda ustoz–shogird tizimi orqali avloddan-avlodga uzviy tarzda yetkazilishi ilmiy asosda yoritiladi . Maqom san’ati o‘zining murakkab lad-intonatsion tuzilishi, usul tizimi, shakliy-dramaturgik rivoji va badiiy-estetik mohiyati bilan o‘zbek musiqiy tafakkurining eng yuksak ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Maqolada maqomlarning tarixiy shakllanish jarayoni, ularning mahalliy (lokal) uslubiy xususiyatlari hamda hududlar kesimidagi ijrochilik maktablarining o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil asosida ochib beriladi. Xususan, Buxoro–Samarqand vohasida Shashmaqomning qat’iy tizimlashgan tuzilishi va ijro intizomi, Xorazm vohasida emotsional-ekspressiv vokal uslubi va “pang ovoz” texnikasi, Farg‘ona–Toshkent hududida esa erkin, lirizmga boy va improvizatsiyaga asoslangan ijrochilik an’analari alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqom turkumlarining rivojlanish jarayoni, ularning shakliy va dramaturgik xususiyatlari, usul tizimi va intonatsion rivoj qonuniyatlari ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llarining “erkin yo‘l” sifatidagi tabiati, katta ashula janri bilan uzviy bog‘liqligi ham asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: maqom, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari, hududiy uslub, mumtoz musiqa, ijrochilik an’analari, lad tizimi, intonatsiya, usul.

Abstract

This article analyzes the historical stages of the development of maqom art formed in the territory of Uzbekistan, as well as its regional performance traditions, using a comprehensive and systematic approach. The study examines the formation of Uzbek classical musical heritage, its development based on oral tradition, and its transmission through the ustoz–shogird (master–apprentice) system across generations. Maqom art is interpreted as one of the highest expressions of Uzbek musical thinking, characterized by a complex modal-intonational structure, a developed usul system, and rich formal-dramaturgical organization.

The article presents a comparative analysis of the historical formation of maqoms, their local stylistic features, and the specific characteristics of regional performance schools. In particular, the structured organization and performance discipline of the Bukhara Shashmaqom, the expressive vocal style and "pang ovoz" technique of the Khorezm tradition, and the free, lyrical, and improvisational nature of the Fergana–Tashkent maqom tradition are examined. Special attention is given to the development of maqom cycles, their formal-dramaturgical structure, rhythmic systems, and principles of intonational development. The study also highlights the "free-path" nature of the Fergana–Tashkent maqom tradition and its close relationship with the katta ashula genre.

Keywords: maqom, Shashmaqom, Khorezm maqoms, Fergana–Tashkent maqoms, regional style, classical music, performance traditions, modal system, intonation, usul.

Аннотация

В данной статье на основе комплексного и системного подхода анализируются историко-этапы развития искусства макома, сформировавшегося на территории Узбекистана, а также его региональные исполнительские традиции. Рассматриваются процессы формирования узбекского классического музыкального наследия, его развитие на основе устной традиции и преемственность через систему «устоз–шогирд», передающуюся из поколения в поколение. Искусство макома интерпретируется как одно из высших проявлений узбекского музыкального мышления, обладающее сложной ладоинтонационной структурой, системой усулов, развитой формой и художественно-драматургическим содержанием.

В статье на основе сравнительного анализа раскрываются особенности исторического формирования макомов, их локальные стилевые характеристики, а также специфика исполнительских школ в различных регионах. В частности, рассматриваются строгая структурированность и исполнительская дисциплина Бухарского шашмакома, эмоционально-экспрессивная вокальная манера и техника «панг овоз» в Хорезме, а также свободная, лирическая и импровизационная исполнительская традиция Фергано–Ташкентского региона. Особое внимание уделяется вопросам

развития макомных циклов, их формально-драматургическим особенностям, системе усулов и закономерностям интонационного развития. Также обосновывается «свободный» характер фергано-ташкентских макомных путей и их связь с жанром катта ашула.

Ключевые слова: маком, Шашмаком, Хорезмские макомы, Фергано-Ташкентские макомы, региональный стиль, классическая музыка, исполнительские традиции, ладовая система, интонация, усул.

O‘zbek mumtoz musiqa san’ati xalqimizning ko‘p asrlik badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va ma’naviy dunyosini o‘zida mujassam etgan ulkan madaniy meros hisoblanadi. Mazkur meros o‘z tarkibiga turli musiqiy janrlar, ijodiy yo‘nalishlar, ijrochilik maktablari hamda boy repertuar namunalarini qamrab oladi. Bu san’at turi asrlar davomida xalqimizning yirik bastakorlari, hofizlari va sozandalari tomonidan avaylab-asrab kelinib, asosan og‘zaki an’ana asosida shakllanib rivojlangan [4, b.124]. Og‘zaki an’ananing muhim xususiyati shundaki, unda musiqiy bilim, ijro tajribasi va repertuar ustozdan shogirdga bevosita amaliy ijro jarayonida o‘tib keladi. Natijada har bir avlod o‘zidan oldingi ustozlarning ijodiy tajribasini saqlagan holda uni yanada boyitib, yangi badiiy talqinlar bilan davom ettirib kelgan.

Ustoz-shogird tizimi o‘zbek mumtoz musiqasining rivojlanishida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Bu tizim texnik ijro mahoratini o‘rgatish bilan bir qatorda musiqa san’atining ichki ruhiy mohiyatini anglash, musiqiy tafakkurni shakllantirish hamda badiiy didni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham o‘zbek mumtoz musiqa an’analari musiqiy bilimlar majmui hamda ma’naviy-estetik tarbiya maktabi sifatida ham qaraladi. Mazkur san’at turi xalqimizning ruhiy olami, tarixiy xotirasi va estetik idealining ifodasi sifatida qadrlanishi ham bejiz emas.

Ma’lumki, o‘zbek mumtoz musiqa merosining eng mukammal va yuksak badiiy namunalaridan biri maqom san’atidir. Maqomlar o‘zining murakkab lad

(parda) tizimi, ohang rivoji, usul tuzilishi hamda badiiy dramaturgiyasi bilan ajralib turadi. Bu san’at turi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, ijrochilik amaliyotida takomillashib kelgan. Maqomlar dastlab umumiy musiqiy negiz asosida yaratilgan bo‘lsa-da, tarixiy rivojlanish jarayonida turli hududlarning madaniy muhiti, ijtimoiy sharoiti hamda ijrochilik an’analari ta’sirida o‘ziga xos mahalliy xususiyatlar kasb eta boshlagan.

Shu tariqa o‘zbek mumtoz musiqa merosida mahalliy uslublar shakllangan bo‘lib, ular ma’lum hududlarning musiqiy tafakkuri, ijrochilik an’analari va estetik qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Vohaviylik xususiyati nafaqat maqom turkumlarida, balki boshqa ko‘plab musiqiy janrlar va ijro shakllarida ham namoyon bo‘ladi. Har bir vohaning musiqiy an’analari o‘ziga xos ohang tuzilishi, usul tizimi, ijrochilik uslubi hamda repertuar tarkibi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ushbu mahalliy uslublar umumiy o‘zbek mumtoz musiqa tizimi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan.

O‘zbek mumtoz musiqasida mavjud bo‘lgan ko‘plab janr va namunalarning umumiy g‘oya asosida yaratilgani bilan bir qatorda, ularning vohaviy xususiyatlarga ega bo‘lishi ham muhim ilmiy-estetik hodisa hisoblanadi. Bu jarayon xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, madaniy muhit va etnik aloqalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Natijada o‘zbek mumtoz musiqa san’ati turli hududlarda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘lib, rang-barang ijrochilik maktablari hamda boy repertuar tizimini yuzaga keltirgan.

Shunday qilib, o‘zbek mumtoz musiqa san’ati umumiy musiqiy negizga asoslangan holda shakllangan bo‘lsa-da, tarixiy taraqqiyoti davomida mahalliy an’analar bilan boyib, turli vohalarda o‘ziga xos badiiy uslublarni yuzaga keltirgan. Bu holat esa o‘zbek musiqa madaniyatining boyligi, rang-barangligi va tarixiy davomiyligini yaqqol namoyon etadi.

O‘zbek mumtoz musiqa merosida lokal xususiyat kasb etuvchi mahalliy uslubning umumjahon ahamiyati haqida musiqashunos olim R. Abdullayev o‘z

tadqiqotlarida keng va batafsil ma’lumot bergan. Xususan, u quyidagilarni ta’kidlaydi: “Ushbu xususiyat, – deb yozadi muallif, – o‘zbek millati shakllanishi jarayonida badiiy ijodiyotda yuzaga kelgan. Ma’lum tarixiy davrlarda o‘zbek an’anaviy musiqasida o‘ziga xos shakl va janrlar, ijro uslublari hamda usullari shakllanib, umumiy o‘zbek musiqiy yo‘nalishlari bilan bir qatorda ayrim jihatlariga ko‘ra turli etnik guruhlar va xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari natijasida o‘ziga xos mahalliy uslublar ham rivojlangan. Mahalliy musiqiy uslublarning shakllanishida quyidagi omillar asosiy mezon bo‘lib xizmat qilgan:

- geografik makon;
- aholining turmush tarzi (o‘troq yoki ko‘chmanchi);
- madaniy muhit;
- muayyan musiqiy janrlarning mavjudligi;
- musiqiy cholg‘ularning hududiy tarqalishi;
- o‘ziga xos musiqiy til va shevaning shakllanishi” [2, b.3].

Ana shu omillar asosida o‘zbek mumtoz musiqa merosida mahalliy (lokal) ijrochilik an’analari yuzaga kelgan. Bu an’analar xalqning ruhiyati, estetik qarashlari va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz musiqa merosida mahalliy xususiyatlarga ega bo‘lgan to‘rtta asosiy hudud(region) mavjudligi qayd etiladi. Bular:

- Buxoro-Samarqand;
- Xorazm;
- Farg‘ona-Toshkent;
- Qashqadaryo-Surxondaryo.

Mazkur hududlarning uchtasida maqom san’atining yirik turkumlari shakllangan. Ular amaliyotda quyidagicha nomlanadi:

- Buxoro Shashmaqomi;
- Xorazm olti yarim maqomlari;

- Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari.

Har bir hududning musiqiy an’analari umumiy maqom tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, ularning ijrochilik uslubi, janrlar tarkibi, cholg‘u ansambllari tarkibi hamda musiqiy talqin usullari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Bu farqlar, avvalo, har bir hududning tarixiy-madaniy muhiti, turmush tarzi, til va sheva xususiyatlari, shuningdek, ijrochilik maktablarining shakllanish jarayoni bilan bog‘liqdir. Natijada har bir hudud o‘ziga xos musiqiy an’analar tizimini shakllantirgan bo‘lib, ular o‘zbek mumtoz musiqa madaniyatining rang-barangligini namoyon etadi.

XVIII asrning oxirlariga kelib, o‘zbek maqom san’ati yangi bosqichga ko‘tarildi. Aynan shu davrda maqomlarning mahalliy shakllari yanada rivojlanib, ularning mustaqil turkumlari shakllana boshlaydi. Natijada o‘zbek mumtoz musiqa madaniyatida yangi maqom navlari yo‘nalishlari yuzaga keladi. Musiqashunos olim R. Yunusovning ta’kidlashicha, Sharq xalqlari musiqiy madaniyatida mavjud bo‘lgan “O‘n ikki maqom” tizimi asosida vaqt o‘tishi bilan milliy maqom maktablari shakllana boshlagan. XVIII asr o‘rtalariga kelib Buxoro shahrida maqomlarning yangi turkum shakli yuzaga keladi. Bastakorlar, hofizlar va sozandalar ijodiy amaliyoti natijasida oltita asosiy maqom bir butun turkumga birlashtirilib, Shashmaqom nomini oladi [6, b.14].

Mazkur turkum keyinchalik Buxoro maqomlari yoki Buxoro Shashmaqomi nomi bilan ham yuritila boshlagan. Buxoro maqomlari bilan bir qatorda Xorazm vohasida Xorazm maqomlari, Farg‘ona vodiysi va Toshkent hududida esa Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari shakllanadi. Ushbu maqom tizimlari ilmiy tadqiqotlarda ham, ijrochilik amaliyotida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Shu bilan bir qatorda, ayrim vohalarda maqomga yaqin bo‘lgan o‘ziga xos ijrochilik yo‘nalishlari ham yuzaga kelgan. Masalan:

- Xorazmda – Xorazm dutor maqomlari va suvora turkumlari;

- Farg‘ona-Toshkent hududida - Yovvoyi maqom, katta ashula va surnay maqom yo‘llari;

Mazkur yo‘nalishlar maqom san’ati taraqqiyotining hududiy ko‘rinishlari sifatida shakllanib, o‘zbek musiqa madaniyatining boy merosini yana-da kengaytirgan.

Masalan, Buxoro–Samarqand vohasida shakllangan maqom ijrochilik an’analari o‘zining mukammal tizimlashganligi, ichki qonuniyatlarga qat’iy bo‘ysunishi hamda Shashmaqom turkumining konseptual yaxlitligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu hududda maqom san’ati tarixiy jihatdan saroy va ziyolilar muhitida shakllanganligi sababli, unda ijro madaniyatining yuqori darajada intizomlashganligi va estetik me’yorlarning puxta ishlab chiqilganligi kuzatiladi. Ijrochilik amaliyotida tanbur yetakchi cholg‘u sifatida maqomning lad-intonatsion asosini ifodalab, ohangning bosqichma-bosqich rivojini belgilasa, doira esa murakkab usul tizimining ritmik barqarorligini ta’minlab, umumiy dramaturgik tuzilmani bir butun holda ushlab turadi. Ayniqsa, hofizlik san’ati bu maktabda alohida yuksak darajaga ko‘tarilgan bo‘lib, unda ijrochidan nafaqat mukammal vokal texnika, balki aruz tizimi qonuniyatlarini chuqur bilish, mumtoz she’riy matnni fonetik va semantik jihatdan to‘g‘ri talqin etish, ohang va matn o‘rtasidagi ichki muvozanatni saqlash kabi murakkab ko‘nikmalar talab etiladi. Shu bilan birga, ohang rivojining izchilligi, avj nuqtalarining mantiqiy asoslanganligi, badiiy talqinning puxtaligi va ijro jarayonidagi ichki dramatizmning izchil saqlanishi Buxoro maqom maktabining asosiy estetik mezonlarini tashkil etadi.

Xorazm vohasida qaror topgan maqom ijrochilik an’analari o‘zining rang-barang cholg‘ular tarkibi, o‘ziga xos vokal ijro uslubi hamda kuchli emotsional-ekspressiv yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Mazkur hududda dutor, doira, bulamon, gijjak, tor kabi milliy cholg‘ularning faol qo‘llanilishi va keyinchalik garmon cholg‘usining ijro amaliyotiga kirib kelishi natijasida tembr jihatdan boy va dinamik ansambl muhit shakllangan. Xorazm xonanda-yu, hofizlarining ijro yo‘llariga xos

“pang ovoz” deb nomlangan ovoz toyifasi, tanglay va dimog‘ rezonatoriga asoslangan kuchli va jarangdor tembri, ijrochilik maktabining eng muhim belgilovchi xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ijro jarayonida mahalliy sheva unsurlarining saqlanishi, ohangni nola, kash va boshqa melizmatik bezaklar orqali boyitishi, ovozning tabiiy kuchi va hissiy ifodaviylikni uyg‘unlashtirish orqali yuqori darajadagi badiiy ta’sirchanlikka erishiladi. Yuqorida keltirilgan ta’rif, tavsif va tahlillar Xorazm ijro san’atining talqini o‘ziga xosligidan dalolat beradi.

Farg‘ona-Toshkent hududida shakllangan ijrochilik an’analari ham boshqa hududlardan nisbatan erkinligi va lirizmga boy uslubi bilan farqlanadi. Bu hududda ayniqsa katta ashula janri keng rivojlangan bo‘lib, u o‘zining ochiq va keng diapazonli ijrosi, maqom ashulalari singari shakl jihatidan bosqichma-bosqich rivojlanmasligi hamda so‘zning hissiy ifoda quvvatining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Katta ashula ijrosida hofizning ovoz imkoniyatlari, nafas ko‘lamining kengligi va uni to‘g‘ri taqsimlash mahorati, ochiq “tik” ovozda ijro etishi hamda hofizlarning hamnafaslikdagi badiiy talqini muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, Farg‘ona-Toshkent ijrochilik an’analarida mumtoz yalla janri va zakiylik (askiya) san’ati muhim o‘rin egallaydi. Cholg‘ular tarkibi: tanbur, dutor, g‘ijjak, doira va qashqar rubobi shular jumlasidandir. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek mumtoz musiqa merosida mavjud bo‘lgan mahalliy ijrochilik an’analari umumiy maqom tizimi doirasida shakllangan bo‘lsa-da, har bir mahalliy hudud o‘ziga xos musiqiy tafakkuri, ijro uslubi hamda cholg‘ular tarkibi bilan ajralib turadi. Bu jarayon o‘z navbatida o‘zbek mumtoz musiqa san’atining rang-barangligi va boy merosini yaqqol namoyon etadi. Bunga misol tariqasida ayrim hududlarda maqom tizimiga yaqin bo‘lgan mumtoz musiqiy janrlar ham shakllanganligini kuzatish mumkin.

Jumladan:

- Buxoro va Samarqandda – “Mavrigi” va sozandalik san’ati;
- Xorazmda – “Suvora” janri;

- Farg‘ona vodiysida – “Katta ashula” janri, mumtoz yalla.

Mazkur janrlar o‘zining ijrochilik talqini, musiqiy tuzilishi hamda badiiy mazmuni bilan maqom san’ati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Farg‘ona vodiysida esa maqom ijrochilik an’analari ayrim hududiy zonalarga bo‘linib rivojlangan. Bu holat nafaqat maqom yo‘llarida, balki boshqa musiqiy janrlar ijrochiligida ham kuzatiladi. Natijada o‘zbek mumtoz musiqasi ko‘plab mahalliy uslublar bilan boyib, bugungi kunga qadar rivojlanib kelmoqda.

Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari o‘zbek mumtoz musiqa tizimida alohida uslubiy xususiyatlarga ega bo‘lgan ijrochilik an’anasi sifatida qaraladi. Ushbu yo‘nalish ko‘pincha ijrochilar tomonidan “erkin yo‘l” sifatida tavsiflanadi. Buning asosiy sababi shundaki, Farg‘ona–Toshkent maqomlarida asarlar tuzilishi Buxoro Shashmaqomida kuzatiladigan qat’iy va mukammal turkumiy tizim darajasida mustahkam shakllanmagan. Shashmaqomda har bir maqom ichki bo‘limlari, rivojlanish bosqichlari hamda aniq kompozitsion tartibi bilan qat’iy tizim asosida tashkil topgan bo‘lsa, Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llarida bunday qat’iy *reglament* kamroq seziladi. Shu bois bu maqom yo‘llari ijrochilik amaliyotida erkinroq talqin qilinishi bilan ajralib turadi.

An’anaviy ustoz sozandalar va hofizlar Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llarini ba’zan “yovvoyi yo‘l” deb ham ataydilar. Bu atama mazkur maqomlarning tartib jihatidan qat’iy turkumiy tizimga to‘liq bo‘ysunmaganligi, ijrochilik jarayonida improvizatsion imkoniyatlarning kengligi hamda ohang rivojining nisbatan erkinligi bilan bog‘liqdir. Biroq bu “yovvoyi” atamasi tartibsizlik ma’nosini anglatmaydi, balki aksincha, vodiyga xos ijroviy yo‘llar, metroritmik jihatdan erkinligi, maqom pardalariga nisbat, ijro jarayonida tabiiy ohang rivoji va erkin badiiy talqinning ustuvorligi va boz ustiga shaxsiy ijro maktablarining ta’sirini ifodalaydi.

Shakl nuqtai nazaridan Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari ko‘p jihatdan katta ashula janrining kompozitsion tuzilishiga yaqin turadi. Xususan, asar odatda

daromad qismi bilan boshlanib, undan so‘ng ohang rivojining keyingi bosqichlari, ya’ni dunasr (yoki rivoj qismi)ga o‘tish kuzatiladi. Bu jarayon asarning dramaturgik rivojlanishini ta’minlaydi hamda ijrochiga ohangni bosqichma-bosqich kengaytirish imkonini beradi. Natijada asar ichki badiiy rivojga ega bo‘lgan holda, asta-sekin avj nuqtalariga yetib boradi. Usul jihatidan esa Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llarida qadimiy zarb tizimlaridan biri hisoblangan “Zarb-ul qadim”, ya’ni “Saraxbor” usuli yetakchi o‘rin egallaydi. Mazkur usul maqom ijrochiligida keng qo‘llaniladigan ritmik asos bo‘lib, u asarning ichki harakatini, ohang rivojini hamda badiiy ifodaviyligini ta’minlaydi. Saraxbor usuli o‘zining barqaror ritmik tuzilishi bilan ajralib turadi va ko‘plab maqom ashulalari hamda katta ashula namunalarida asosiy ritmik mezon sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekistonda maqom san’atining taraqqiyot yo‘lida Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari alohida ahamiyatga ega. Bu yo‘nalish o‘zbek mumtoz musiqa merosining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, maqom san’atining hududiy rivojlanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Farg‘ona-Toshkent maqomlari umumiy maqom tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zining ijrochilik uslubi, shakl tuzilishi hamda badiiy talqini bilan boshqa maqom maktablaridan sezilarli darajada farqlanadi. Avvalo, Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari maqom san’atining xalqchil va erkin talqin shakllarini rivojlantirganligi bilan ahamiyatlidir. Bu yo‘nalishda maqom asarlari Shashmaqom turkumidagi kabi qat’iy kompozitsion tizimga to‘liq bo‘ysunmagan bo‘lib, ijrochilik jarayoni amaliyotida erkinlik, improvizatsiya va badiiy talqin imkoniyatlari kengroq namoyon bo‘ladi. Bunday ijro uslubi maqom san’atining tabiiy rivojlanishi hamda uning xalq musiqiy tafakkuri bilan yaqin aloqada bo‘lishiga xizmat qilgan deyish mumkin.

Ikkinchidan, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari katta ashula an’anasi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Katta ashula janri bu hududda vokal ijrochilik san’atining yuksak namunasi sifatida shakllangan bo‘lib, u keng diapazonli ovoz imkoniyatlari, ohangning bosqichma-bosqich emas, balki badihaviy

rivojlanishi hamda so‘zning chuqur hissiy ifodasi bilan ajralib turadi. Bu jihatlar Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llarining badiiy ifodaviyligini boyitib, ularning musiqiy dramaturgiyasini yanada ta’sirchanligini oshiradi.

Uchinchidan, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari o‘zbek maqom san’atining vohaviy xilma-xilligini namoyon etuvchi muhim ijrochilik maktablaridan biri hisoblanadi. Ushbu maktab doirasida ko‘plab yirik hofizlar va sozandalar yetishib chiqqan bo‘lib, ular maqom san’atining boy repertuarini avloddan-avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaganlar.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari o‘zbek maqom san’ati taraqqiyotida erkin ijro an’analari, vokal san’atining rivoji, katta ashula bilan uyg‘unlik hamda o‘ziga xos ritmik va kompozitsion xususiyatlari bilan muhim o‘rin egallaydi. Ular faqatgina maqom san’atining hududiy shakllarini boyitibgina qolmay, balki o‘zbek mumtoz musiqa madaniyatining rang-barangligi va badiiy boyligini yanada kengaytirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев, Р. Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. — Ташкент, 2006. — 335 с.
2. Abdullayev, R. O‘zbek an’anaviy musiqasi. — Toshkent, 2023.
3. Ибрагимов, О. Фергано-Ташкентские макомы. — Ташкент: Media Land, 2006. — 176 с.
4. Rajabov, I. Maqomlar / nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O. Ibrohimov. — Toshkent: San’at, 2006. — 404 b.
5. Rajabov, I. Maqom asoslari: o‘quv-metodik qo‘llanma / tahrir R. Yunusov. — Toshkent, 1992. — 89 b.
6. Yunusov, R. O‘zbek maqomlari. — Toshkent, 2018.

References

1. Abdullaev, R. *Obryad i muzyka v kontekste kul’tury Uzbekistana i Tsentral’noy Azii* [Ritual and Music in the Context of the Culture of Uzbekistan and Central Asia]. Tashkent, 2006. (in Russian)
2. Abdullayev, R. *O‘zbek an’anaviy musiqasi* [Uzbek Traditional Music]. Toshkent, 2023. (in Uzbek)
3. Ibragimov, O. *Fergano-Tashkentskie makomy* [Fergana–Tashkent Maqoms]. Tashkent: Media Land, 2006. (in Russian)

4. Rajabov, I. *Maqomlar* [Maqoms]. Edited by O. Ibrohimov. Toshkent: San'at, 2006. (in Uzbek)
5. Rajabov, I. *Maqom asoslari* [Foundations of Maqom]: Study Guide. Edited by R. Yunusov. Toshkent, 1992. (in Uzbek)
6. Yunusov, R. *O'zbek maqomlari* [Uzbek Maqoms]. Toshkent, 2018. (in Uzbek)